



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 23-sentabr, shanba,
113 (23.834)-son

**KUN
HIKMATI**
Inson ruhiyati
va vujudidagi
illatning
katta-kichigi,
arzimaydigan
bo'lmaydi

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

MAS'ULIYATSIZ QURILISH TASHKILOTI KEYINGI TENDER TANLOVLARIDA QATNASHISHI TO'G'RIMI?

21-sentabr kuni
xalq deputatlari
viloyat Kengashining
to'qsoninchi sessi-
yasi bo'lib o'tdi.
Sessiyani deputat
F.Toshev boshqardi.

Dastlab tashkiliy masala
ko'rildi. Shu paytgacha xalq
deputatlari viloyat Kengashi
kotibiysi mudiri vazifasida
ishlaga Zafar Karimov o'z
arizasiga binoan lavozimi-
dan ozod etildi. Deputatlar
Saidahmad Usmonovni
Kengash kotibiysi mudiri
vazifasiga tasdiqladilar.

Shundan so'ng kun
tartibiga ko'ra, huddular-
da maishi chiqindilarni
to'plash va olib chiqib
ketish bo'yicha xizmat
ko'rsatish uchun majburiy
to'lov tariflari miqdorini
ma'qullash to'g'risidagi
qaror loyihasi muhokama
qilindi.

Mutasaddilarning ta'kid-
lashicha, maishi chiqin-
dilarni to'plash va olib chiqib
ketish bo'yicha xizmat
ko'rsatishdagi majburiy
to'lov miqdorining oshirilishi
xizmat ko'rsatish sifati yax-
shilanishiga yordam beradi.

Yangi tariflar Samarqand
shahri va tumanida aholi
uchun bir kishiga bir oyda
5 ming so'm, yuridik tash-
kilotlar maishi chiqindilarni
uchun 1 metr/kubiga 90
ming so'm, 1 tonnasiga
182 ming 550 so'm, suyuq
chiqindilarni uchun 86 ming
525 so'm, Kattaqo'rg'on
shahri va tumanlar aholisi
uchun bir kishiga bir oyda
4 ming 129 so'm, yuridik
tashkilotlar maishi chiqin-
dilarni uchun 1 metr/kubiga
59 ming 693 so'm, 1 ton-
nasiga 155 ming 824 so'm,
suyuq chiqindilarni uchun 70
ming 600 so'm etib belgi-
moqda.

Deputatlar davlatimiz
rahbarining "O'zbekiston
Respublikasining ijtimoiy va
ishlab chiqarish infratuz-
ilmasini rivojlantirish das-
turi hamda boshqa davlat
dasturlari ijrosi ustidan
nazoratni kuchaytirishga
doir qo'shimcha chora-tad-
birlar to'g'risida"gi qarori-
ning ijrosi yuzasidan viloyat
ichki ishlar boshqarmasi
boshlig'i R.Mamatovning
hisobotini eshtidi.

Hisobotga ko'ra, joriy
yilda viloyat hokimligi
buyurtmasiga asosan,
viloyat 3-sektori hududida
23 ta ijtimoiy soha obyektni
qurish, rekonstruksiya qilish
va mukammal ta'mirlash
ishlarini olib borish belgi-
langan. Shu kunga qadar
21 ta obyektda qurilish
ta'mirlash ishlari to'liq
yakunlanib, foydalanishga
topshirilgan. Qolgan ikkita
obyekt - Samarqand tu-
manidagi 10-umumiy o'rta
ta'limga mabtasini rekon-
struksiya qilish, Gulobod
mahallasi hududida ixti-
soslashtirilgan maktab yil

oxiriga qadar foydalanimishga
topshirilishi rejalashtirilgan.
Ushbu obyektlardagi quri-
lish-montaj ishlari 160
milliard 449 million so'm
mablag' ajratilgan.

Hududlardagi sektor ish-
chi guruhlari tomonidan olib
borilgan o'rganishlar jarayoni
oda obyektlarning qurilish
ishlari buyurtmachining
texnik nazorati hamda loyi-
hachining mualliflik nazorati
qoniqarsiz ahvolda ekanligi,
ishlar sifatsiz bajarilgani
aniqlangan. Jumladan,
Urgut tumanini Mo'minobod
mahallasidagi 127-umum-
ta'lim maktabini rekonstru-
siya qilish davomida hudud
obodonlashtirilmagan, beton
yo'lklar tashkil etish ishlari
chala qolgan, tom qismida-
gi yog'ochlarga yong'inga
qarshi ishlov berilmagan.

Samarqand tumanining
Arabxonha mahallasidagi
9-maktabni rekonstruksiya
qilish, 300 o'rinni o'quv binosi
qurish ishlari ijo hujjalari
to'liq yuritilmagan, hudud
obodonlashtirilmagan.

Nurobod tumanining
Nurbuloq shaharchasidagi
41-umumta'lim maktabi
maydoni vaqtinchaligi to'siq
devor bilan o'ralmagan,
g'isht terish ishlari sha-
harsozlik normalari asosida
bajarilgan.

- Qurilish ishlari amal-
ga oshirish, nazoratini
tashkil etish va shaffoflikni
ta'minlashda kamchilik
va muammolar borligini
barchamiz bilamiz, buni
sessiyalarda muhokama
ham qilyapmiz, - dedi
F.Toshev. - Ammo avvalgi
yillardagi qurilish ishlari
kamchiliklarga yo'l oq'yan
quruvchi tashkilot bu yilgi
tender tanlovlarda ham
paydo bo'lyapti. Qurilish
sohasida o'rnatilgan tartib-
larga roya qilmay, aholi-
ning haqli e'tirozlariga
sabab bo'layotgan qurilish
tashkilotini jazo sifatida
tenderlarda qatnashishini
chechkash, mutaxassislarining
o'z vazifasini lozim darajada
bajarishi, qurilish ishlari
sizmat qilmaydimid?

Sessiya davomida yilning
birinchi yarmida norma
ijodkorligi hamda huquqni
qo'llash amaliyoti holati
yuzasidan viloyat adli-
ya boshqarmasi boshlig'i
S.Nuriyevning, xotin-qiz-
lar bandligini ta'minlash
borasida amalga oshirilgan
ishlar yuzasidan viloyat
kambag'alliq qisqartirish
va bandlik bosh boshqa-
rmasi boshlig'i T.Mah-
mudovning axborotlari
tinglandi. Shuningdek,
"Samarqand suv ta'minoti"
MCHJ raisi K.Yusupov
aholini ichimli va oqova
suv bilan ta'minlash da-
rajasini oshirish bo'yicha
amalga oshirilgan ishlar
hamda kelgusidagi rejalar
to'g'risida hisobot berdi.

Sessiyada muhokama
etilgan masalalar yuzasidan
qarorlar qabul qilindi.

Viloyat hokimi Erkinjon
Turdimov Birlashqan Arab
Amirliklari poytaxti — Abu
Dabi madaniyat va turizm
departamenti bosh direktori
Salih Muhammad Saleh
al-Gazeri boshchiligidagi
delegatsiya bilan uchrashuv
o'tkazdi.

Muloqotda turizm sohasidagi
hamkorlikni yanada rivojlantrish, Abu
Dabi va Samarqand o'rtaida havo
qatnovlarini ko'paytirish masalalari
muhokama qilindi.

E.Turdimov Samarqandning turis-
tic salohiyati va keyingi yillarda amal-
ga oshirilgan ishlar, mazkur soha
vakillariga berilayotgan imtiozlar
haqida ma'lumot berdi.

O'z navbatida Salih Muhammad
Saleh al-Gazeri mamlakatimizda
turizmi rivojlantrish borasida keng
ko'lami islohotlar olib borilayotganini
e'tirof etib, ushbu yo'nalishda ham-
korlik qilishga tayyorligini bildirdi.

SAMARQAND dan ABU DABI ga AVIAQATNOVLAR KO'PAYTIRILADI



ALI QUSHCHI ILMIY MEROSI DUNYO OLIMLARI NIGOHIDA

Samarqand davlat universitetida "Ali Qushchi - Mirzo Ulug'bek ilmiy maktabining buyuk vakili" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi. Unda Matematika instituti direktori Shavkat Ayupov, Astronomiya instituti direktori Shuhrat Egamberdiyev, shuningdek, Boku davlat universiteti rektori Elchin Boboyev, Rossiya kvant markazi direktori Ruslan Yunusov, AQSH, Turkiya, Xitoy, Koreya, Hindiston va boshqa davlatlar-
dan olimlar ishtirok etdi.



(Davomi 3-sahifada) >>>

RUDAKIY YOD ETILDI

Samarqand shahrida fors-tojik
she'riyatining atoqli vakili Abu
Abdulloh Rudakiy tavalludiga
bag'ishlangan adabiy-ma'rifiy
tadbir bo'lib o'tdi.

Viloyat hokimligi, Yozuvchilar uyush-
masi viloyat bo'limi, Samarqand dav-
lat universiteti, viloyatdagi tojik milliy
madaniy markazi hamda "Ovozi Samar-
qand" gazetasini tahririyati hamkorligida
tashkil etilgan tadbirda ijodkorlar va

she'riyat ixlosmandlari ishtirok etdi.

Tadbirda senator F.Toshev, adapiyot-
shunos olimlar S.Sa'diyev, J.Hamroyev,
Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi rah-
bari T.Tugalov, viloyat tojik milliy madaniy
markazi rahbari A.Mahmudov, "Ovozi Samar-
qand" gazetasini bos muharriri B.
Rahmonov va boshqalar shoir hayoti,
ijodi, she'rlarining o'ziga xos xususiyatlari
to'g'risida so'z yuritdilar. Tadbir yakunida
Samarqand davlat universiteti talabalari
shoir she'rlaridan namunalar o'qidi.




2023-yilning fevral oyida Turkiyaning janu-
bida ro'y bergan zilzila oqibatida falokatdan
jabr ko'rgan oilalarga hamdardlik hamda
ularning ko'ngliga taskin berish maqsadida
davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Turkiy
davlatlar tashkilotining navbatdan tashqari
sammitida qardosh xalq vakillarining yur-
timizga sayohatini tashkil etish tashabbusini
bildirgandi.

TURK QARDOSHLARIMIZ SAMARQANDNI ZIYORAT QILDI

Ushbu tashabbus asosida
shu kunlarda qahramon-
marashlik bir guruh fuqarolar
yurtimizda mehmon bo'lib
turibdi.

Dastlab Toshkent va
Jizzaxga sayohat qilgan
mehmonlar 22-sentabr kuni
Samarqandga keldi. Sa-
marqand temiryo'l vokzalida
viloyat jamoatchiligi vakillari
tomonidan tantanali kutib
olilgan qardoshlar qadim
kentning diqqatga sazovor
joylarida bo'ldi.



- Joriy yilning 6-fevral
kuni Turkiyaning o'n bir
viloyatida kuzatilgan vay-
ronagarchiliklar xalqimizni
og'ir ahvolga solib qo'ydi,
- deydi Turkiya Respublikasi
ichki ishlar vazirligi huzu-
ridagi ofat va favqulodda
vaziyatlar bosh boshqarmasi
mas'ul xodimi, delegatsiya
rahbari Sezin Tunan. - Bu
vaqtida qardosh xalqlarning
yordamida daldasi bizga o'ziga
xos kuch bo'ldi. Ayniqsa,
O'zbekiston tomonidan
ko'rsatilgan yordam alohida
e'tirof etish joiz. Ularning
qidiruv-qutqaruv ishlarida-

gi ko'magi tufayli ko'plab
insonlarning hayoti saqlab
qolindi. Afsuski, bu mudish
voqealardan ko'plab inson-
lar hayotdan ko'z yundi.

Bugungi delegatsiyamizda
zilzila oqibatida yaqin inson-
larini yo'qtgan yurtosh-
larimiz Shavkat Mirziyoyev
tashabbusi bilan O'zbekiston
bo'ylab sayohat qilmoqda.
Bundan maqsad ularning
ko'nglini ko'tarish, g'am-
qayg'usini imkon qadar
unutishga yordamlashishdan
iborat. Yer yuzining say-
qali bo'lgan qadim Samar-
qandning aziz qadamjolarini
ziyorat qilgan yurtoshlarini
ko'ngli biroz bo'lsa-da,
taskin topdi, deb o'layman.

Sayohat davomida meh-
monlar Registon maydoni,
Mirzu Ulug'bek muzey-maj-
muasi, Shohi Zinda yodgor-
ligi, Imom Moturiy ziyyarat-
gochlari bo'lib, ilm-fan,
islom dini taraqqiyotiga ulkan
hissa qo'shgan allomalar
hayoti, ijodi, yurtimiz boy
madaniy merosi bilan yaqin-
dan tanishi.

A.ISROILOV.

Sifatli ta'lif yilida yangi o'quv yili qanday boshlandi?

Yoxud boshlang'ich sinflarga bepul ovqat, yangi avlod darsliklari berildimi?

Prezidentimiz 2023-yil 28-fevralda "2022-2023-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili"-da amalga oshirishga doir davlat dasturi to'g'risida"gi farmonini imzolagan edi. Unda 2023-2024-o'quv yilidan boshlang'ich sinflar bilan tanishadi.

Boshlang'ich sinflar bilan tanishadi yoki qo'yilishi belgilangan. Bu haqda prezidentimiz bir necha bor chiqishlari da ham ma'lum qilgandi. Xo'sh, bugun maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga bepul ovqat berilayaptimi?

Ushbu masala yuzasidan Samarcand shahridagi 45-, Samarcand tumanidagi 10-va 16-umumiy o'rta ta'lif maktablarda bo'idik. Biroq ushbu maktablarda hali boshlang'ich sinflarga bepul ovqat berilmayotgan ekan. Holatga aniqlik kiritish maqsadida viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bilan bog'landik. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bepul ovqat berilishi uchun Vazirlar Mahkamasining qarori chiqishi kerak ekan. Ammo hanuzgacha bu haqda hech qanday buyruq, qaror yoki topshiriq berilmabdi. Viloyat bo'yicha umumiy o'rta ta'lif maktablarda boshlang'ich sinflarga bepul ovqat berish yo'iga qo'yilmagan.

MAKTABLARGA YANGI DARSLIKLAR TO'LQ YETIB BORDIMI?

Biz yuqorida nomlari keltirilgan maktablarda yangi avlod darsliklari haqida ham surishtirdik. Ma'lum bo'lishicha, Samarcand shahridagi 45-umumiy o'rta ta'lif maktabida 1-sinflar uchun alifice, matematika, tabiiy fanlar, musiqiy savodxonlik, tasviriy san'at, tarbiya, texnologiyalarini fanlaridan yangi darsliklar va mashq daftarlari kelgan. Ingлиз tilidan esa hali darslik berilmagan.

2-sinflar uchun matematika va musiqa, 3- va 4-sinflar uchun matematika, o'zbek tili darsliklari, o'qish daftari kelgan, xolos. Qolgan fanlardan yangi avlod darsliklari kelmagan. Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilariga eski darsliklar berilgan.

Maktabda jami o'quvchilar soni 2295 nafarni, maktab koeffitsienti 1,8 foizni tashkil qiladi. Yangi o'quv yilda 1-sinfga 175 nafar bola qabul qilingan. Har bir sinfda 35 nafardan o'quvchi o'qimoqda.

Samarcand tumanidagi 10-umumiy o'rta ta'lif maktabiga 1-sinflar uchun birinchisi choraklikka mo'ljallangan 14 jamlanma darslik berilgan. Darsliklar og'irlashib ketmasligi uchun har chorakka alohida kitob chiqarilgan. Ikkinci, uchinchasi va to'rtinchisi choraklik uchun yangi avlod darsliklari hali yetib kelmagan. Shuningdek, 1-sinflarga ingliz tili darsligi ham berilmagan.

2-sinflarga matematika, o'qish, tasviriy san'at darsliklari va tabiiy fan, jismoniy tarbiya fanlarining daftarlari kelgan bo'lsa, 3-sinflarga matematika, tabiiy fan darsliklari berilgan, xolos. 4-sinflar uchun esa matematika, ona tili darsliklarining birinchisi va o'qish savodxonligi darsligi kelgan. Ushbu maktabda ham bolalar eski darsliklari asosida ta'lif oylapdi. Bundan tashqari, 8-sinf rus guruhi uchun komplekt darsliklar yetishmayapti.


Ayni kunda 3085 nafar o'quvchi ta'lif olayotgan ushbu maktab quvvati 2,7 foiz



uchun o'zbek va rus guruhi uchun o'qishda yangi birlinchi choraklikka mo'ljallangan yangi avlod darsliklari kelgan. O'zbek guruhi uchun 2-, 3-, 4-sinflarga atigi matematika, o'qish, jismoniy tarbiya, tabiiy fan, tasviriy san'at darsliklari berilgan. 2-sinfdan 4-sinfgacha bo'lgan rus guruhi uchun yangi avlod darsliklari kelmagan. Ushbu maktabga yangi o'quv yilda 344 nafar bola 1-sinfga qabul qilingan. Maktab quvvati 1,6 foiz koefitsientga ega bo'lib, jami 2009 nafar bola ta'lif olmoqda.

Sifatli ta'lif yilida yangi avlod darsliklari maktablarga to'liq yetib kelmag'anligining sababi nimada? Bu haqda viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining maktablarni kitoblar bilan ta'minlash bo'yicha mas'ul xodimi Bahodir Norqo'ziyevdan izoh so'radik. Mas'ul xodim yangi avlod darsliklarining faqat birinchi choraklik

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot



uchun chop etilgani kelganini, umumiy hisobda yomon natija ko'rsatishini aytib, bu haqda ma'lumot berishni istamadi.

NEGA MAKTABDA YO'Q DARSLIKLAR DO'KONLARDA SOTILYAPTI?

Ota-onalardan birining aytishicha, 1-sinf ingliz tili darsligi maktablarga berilmagan, ammo kitob do'konlarda sotilmoqda ekan. Holatga aniqlik kiritish maqsadida Samarcand shahri Marmar bozori atrofidagi kitob do'konlarini ko'zdan kechirdik. Haqiqatda kitob do'konlarda 1-sinfdan 4-sinfgacha yangi ingliz tilli darsliklari daftari bilan birga 55-60 ming so'm atrofida sotilmoqda. Qiziq, maktablarga yetib kelmayan ingliz tili darsligi qanday qilib kitob do'konlari da sotilyapti? Buning ustiga ushbu darsliklar o'quvchilarga tekin berilishi, hatto ijara puli olinmasligi aytildi. Darslikda yozilishicha, kitob O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligining O'zbekiston barkamolilik uchun ta'lim dasturi hamkorligida chop etilgan. Adadi 694306 nusxa bo'lgan darslik Toshkent shahar, Yunusobod tumani "Kolorpak" MCHJ bosmaxonasi da chop etilgan. Sotuvchi ushbu darsliklar Toshkentdan keltirilishini aytadi. Ba'zi ota-onalar darsliklarni do'konlardan sotib olmoqda.

To'g'ri, ta'lif uchun sarmoya ajratishinga o'rinnaslik kerak. Ammo aval maktablarga bepul yetkazilishi kerak bo'lgan darsliklarni nega kitob do'konlarda bor-u, maktablarga yetib kelmagan? Hatto kitob do'konida boshqa fanlarga oid darsliklarni ham sotilyapti. Darsliklarni savdosi ham biznesga aylanishni ketdimi?

Yana bir gap: eski darslik asosida dars o'tayotgan o'qituvchilar yangi darsliklarni keltilgach, qancha dars o'tgan bo'lsa, o'sha miqdorda darslarni qoldiriba, darsini davom ettirishiga majbur. Aks holda, o'quv yili yakuniga qadar yangi darslikdagi mavzularni tugata olmaydi. Ammo yangi darsliklarni qachon kelishini ham hech kim bilmaydi. Yana yan achanilishi, yangi avlod darsliklari daqidi mavzular eski darslikdagi butunlay farq qiladi. Buni ta'lim tizimi rahbarlarini va mas'ul xodimlar bilishi va ushbu muammoning oldini olishi kerak edi. Afus...

Kurshida ERNAZAROVA,
"Zarafshon" muxbir.

Davlat xavfsizlik xizmati Samarcand viloyati boshqarmasi boshlig'i A.Xmedov ishtirokidagi navbatdagi "Rahbar va yoshlar" uchrashuvni Nurobod tumanidagi "IT VILAGE" o'quv majmuasida o'tkazildi.

DXX rahbari nurobodlik yoshlar bilan uchrashdi

Unda tumanning turli hududlari- dan kelgan yoshlar bilan muloqot, sayyor qabul tashkil etildi.

Dastlab boshqarma boshlig'i va viloyat, tuman mas'ullari o'quv majmuasida yoshlarning zamonaviy axborot texnologiyalarini o'rganishi uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. O'quvchilar tomonidan yaratilgan loyiha va texnologiyalar ko'rgazmasi o'tkazildi. Shuningdek, kiber sport bilan shug'ullanayotgan o'quvchi-yoshlar bilan muloqot qilindi.

Shundan so'ng yoshlar bilan uchrashuv o'tkazilib, nurobodlik yigit-qizlarning muammolari, taklif va tashabbuslari tinglandi. Qayd etilgan muammo va kamchiliklarga yechim izlandi, bu borada mutasaddilarga vazifalar belgilandi.

Jumladan, Tepaqlı mahallasida



yashovchi tadbirdor yoshlardan biri Saidbek Boboyorov IT o'quv markazini tashkil etishi uchun kredit olishda amaliy yordam so'radi. Uning masalasi tegishli bank jaib etilgan holda hal etilishi bildirildi, shuningdek, Saidbekka zamonaviy axborot texnologiyalar o'rgatilishi belgilandi.

Narvo'z mahallasida yashovchi N.Toshpo'latovning 2019-yilda foydalishga topshirilgan kutubxonaga yangi adabiyotlar keltirish yuzasidan murojaati joyida hal etildi. Yaqin kunlarda kutubxonaga kerakli kitoblar yetkazib berilishi aytildi.

Uchrashuv davomida nurobodlik yoshlarning shu kabi o'nlab masalalariga yechim topildi. Bilimi, tadbirdor va kasb-hunarli bir guruh yoshlar, nogironligi bo'lgan yigit-qizlarga esdalik sovg'alari va kitoblar sovg'a qilindi.

BU FAKT!

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimizdagi sanoat korxonalarini tomonidan 14652,2 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,4 foizni tashkil etdi.

Viloyat statistika boshqarmasi axborot xizmati.

Farg'onaning Qo'qon shahrida o'tkazilgan II Xalqaro hunarmandchilik festivalida 61 nafar samarcandlik usata-hunarmand qatnashdi. Biz ular bilan bog'lanib, tadbir taassurotlariga qiziqdiq.

FESTIVALDAN TAASSUROTLAR

— Festival doirasida Rishton tumanida Xalqaro kulolchilik forumi o'tkazildi, - deydi urgutlik usta-hunarmand No'mon Obloqulov. — Unda milliy va xorijiy kulolchilik san'atining o'ziga xos jihatlari, madaniyatimiz o'rasisidagi o'shashliklar muhokama qilindi. Xorijlik hamkasblarimiz bilan ijodiy hamkorlikni yo'liga qo'yishga kelishib oldik.

— Festival har tomonlama foydali bo'ldi, - deydi ishtixonlik yana bir kulol Inobat Rahmuddinova.

- Ko'rgazmaga olib kelgan solop buyumlarimga, ayniqsa, xorijliklarning katta qiziqish bildirishdi. O'z navbatida biz ham chetdan kelgan ustalarning ishlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldik. Festival yagonida tashkil etilgan savdo yarmarkasida deyarli barcha mahsulotimiz sotildi.

— Bu kabi nufuzli tadbirdor birlinchi bor ishtirok etishim, - deydi Kattaoq'rg'on shahridan borgan kashtachi Farzona Saparova. — Festival hunarmandlarga katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Men bu yerda oltin tajribalarimdan foydalani, xorijiga milliy kashtachilik mahsulotlarimizni eksport qilishni rejalashtirayman.



"ELEKTRROSET"

BOSHLIG'I ISTE'MOLCHILARDAN UZR SO'RADI

- Samarqand shahri Qorasuv massividagi 7 ta ko'p qavatlari uyg'a qachon uzluksiz elektr energiya-si beriladi?

- Toyloq tumanidagi Tuyoqli, Payariq tumanidagi G'oyibota hamda Samarqand shahridagi Bog'ibaland mahallalarida o'rnatilgan yangi transformatorlar qachon tarmoqqa ulanadi?

"Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlari jamiyatni Samarqand hududiy filialida bo'lib o'tgan matbuot anjumanida shu va boshqa savollarga javob olindi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil kuzish masumiga tayyorgarlik doirasida 13 dona 35-110 kW kuchlanishli transformator, 2941,2 kilometr elektr iza-tish tarmoqlari, 1174 dona 6-10/0,4 kW kuchlanishli transformator punktlari mukammal ta'mirlandi. 129 ta yuqori, 1911 ta past kuchlanishli transformator, 5799 kilometr masofadagi past kuchlanishli elektr iza-tish tarmoqlari joriy ta'mirdan chiqarildi. Favqulodda avariyalarni qisqa muddatlarda bartaraf etish uchun 36 ta tarmoq transformatori, 20,2 tonna transformator moyi, 75 ta temir-beton tayanch, 1 tonna sim, 5,9 kilometr kabel va 65 ta kabel muf-talaridan iborat zaxira yaratildi. Shun-

ingdek, 542 nafar mutaxassislardan iborat 84 ta ta'mirlash brigadalari, 10 ta maxsus texnika, 42 ta avtomobil va mexanizmlar tashkil etilgan.

- Avvalo, barcha iste'molchilardan elektr energiyasi tizimdagagi kamchiliklar va oqsoqlanishlar uchun urz so'rayman, - deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlari jamiyatni Samarqand hududiy filiali boshlig'i Umid Nazarov.

- Chunki ko'p hududlarda boshlagan ishlarni o'z vaqtida yakuniga yetkaza olmayapmiz. Qayerdaridir transformator, qayerdaridir beton ustunlar o'rnatish yoki tarmoqqa ulash ishlari turli sabablar bilan o'z vaqtida bajariyapti.

Joriy yilda dastur va rejalar asosida boshlangan ishlarning 377 tasi to'xtab qoldi. Imkoniyatlarimiz chimalab, yil yakunigacha barcha ishlarni oxiriga yetkazamiz.

Jumladan, Samarqand shahri

kimyogarlar qo'rg'onida 1,2 kilometr 110 kWli elektr uzatish tarmog'i qurilishi, Afrosiyob, Registon, G'arbiy va Shimoliy podstansiyalardagi rekonstruksiya ishlari joriy yilning 1-oktyabriga tashkil etilgan. Katta yuklamada ishlayotgan Shohi Zinda podstansiyasida 4000 kVA transformator 1-noyabrga qadar yangilanadi.

- Aholi murojaatlarini ham o'z vaqtida o'rganib, imkoniyat boricha ijobiy hal qilishga alohida e'tibor qaratayapmiz, - deydi U.Nazarov. - Jumladan, Qorasuv massividagi jo'yibot qo'riq yulmasi qo'plig' tufayli "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand tumani filialiga qarashli elektr tarmoqlari ulangan 7 ta ko'p qavatlari uylardagi uzilishlar "Motrid" podstan-siyasiga 6300 kVA kuch transformatori o'rnatish orqali barham topadi. Hozirda



yil yakunigacha barcha uylar uzluksiz elektr bilan ta'minlanadi. Shuningdek, Ishbiton, Qo'shrabot va Oqdaryo tumanlarida joylashgan elektr podstan-siyalarining kuchlanish quvvati ikki barobarga oshirilgan bo'lsa, bu ishlarni Samarqand, Kattaoq'rg'on, Payariq hamda Bulung'ur kabi tumanlarda yil yakunigacha niyoyasiga yetkaziladi. Shuningdek, Toyloq tumanidagi Tuyoqli, Payariq tumanidagi G'oyibota hamda Samarqand shahridagi Bog'ibaland mahallalarida o'rnatilgan yangi transformatorlar ham bir hafta ichida tarmoqqa ulanadi.

Matbuot anjumanida jurnalistlarni qiziqitirgan savollarga soha mutasadilari javob berishdi.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida publisist va shoir Ismat Ko'chiyev bilan ijodiy uchrashuv o'tkazildi. Ismat Ko'chiyev yozuvchi va shoir, jamoat arbobi. U 2022-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilingan. Shuningdek, Belarus Yozuvchilar uyushmasi a'zosi hisoblanadi. Prezidentimiz farmoniga ko'ra, Vatanimiz mustaqilligining 32 yili arafasida Ismat Ko'chiyev "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.

IJODKOR



BILAN UCHRASHUV

Adib o'zbek va rus tillarida ijod qiladi. Uning ijodida biografik publisistik janri alohida o'rinnutadi. Shu paytgay qadar u "Sharof Rashidov – pobeditel" ("Sharof Rashidov – g'olib"), "Sharof Rashidov – sozidatel" ("Sharof Rashidov – buniyodkor") kabi siyosiy-jitimoiy portretlarni yaratdi. Ushbu kitoblarida tarixchi sifatida davlat arbobi Sharof Rashidovning yorqin hayot yo'lini tahlil qilarken, shaxsnинг tarixdagi roli naqadar katta bo'lishini takror-takror ta'kidlagan.

Ismat Ko'chiyevning yana ikkita asari – "Jannat rayhonlari" va "Ulug'lar chorborg'i" nomli kitoblari o'zbek tilida chop etilgan. Uning "Babur. Skvoz veka" ("Bobur. Asrlar oralab") nomli kitobida Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosining jahon taraqqiyoti tarixdagidi o'rnini borasi da muhohaza yuritiladi.

O'zbekiston va Belarus Yozuvchilar uyushmalari a'zosi, taniqli jamoat arbobi, publisist, "Do'stlik" ordeni sohibi, yozuvchi Ismat Ko'chiyev bilan ijodiy uchrashuv doirasida ijodkorning yangi nashr etilgan kitoblari, xususan "Sharof Rashidov – buniyodkor" nomli kit-

Ismat Ko'chiyevning ruboilyari, "Bolalik chorborg'i", "Talabalik yillardim" she'riy turkumlari e'lon qilingan. Uning she'riyatida bolalik va talabalik davriga xos samimiylat barkamolligi yoshida ham tozaligicha saqlangan. Shoир uchun "teng kelolmas hech qanday qo'shiq bolalik bog'larin shivirlashiga". Uning nazarida inson bolaligidan olgan samimiylati butun umr davomida ezguliklar yaratishga qodirdi.

2023-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida Ozarbayjon xalqining ardoqlari farzandiy, davlat va jamoat arbobi, Ozarbayjonning birinchi prezidenti Haydar Aliyevning 100 yilligi munosabati bilan Ismat Ko'chiyevning "Haydar Aliyevning g'alabasi" kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi.

Keng ko'lamda bo'lib o'tgan ushbu taqdimotda muallifining kitobida o'zbek va ozarbayjon xalqlarining asrlandan beri davom etib kelayotgan do'stligi, ikki xalqning taqdiridagi uyg'un nuqtalar haqida hayajon bilan yozilgani yozuvchi va adabiyotshunoslar tomonidan ta'kidlandi.

Tadbirda adib Ismat Ko'chiyev kitoblarining yaratilish tarixi,



bi taqdimoti o'tkazildi. Uch asardan iborat ushbu kitobni rus tilidan o'zbek tiliga SamDU boshlang'ich kasaba uyushmasi ko'mitas raishi dotsent Shakhat Maxmatmurodov tarjima qilgan.

Anjumanda SamDU professorlari Hotam Umurov, Ibdulla Mazyayev, Farhod Nabiyev, Mahmud Narzullayev va boshqalar kitob haqida o'z fikrlarini bildirdi.

tanlangan qahramonlar hayoti va ijodiga alohida to'xtaldi. Shuningdek, tadbiroda universitet xorijiy va mahalliy professor-o'qituvchilar va talabalar tomonidan berilgan savol-larga ijodkor tomonidan batafsil javoblar qaytaridi.

Uchrashuv yakunida Ismat Ko'chiyev kitoblar to'plamini universitet kutubxonasi fondiga tuhfa qildi.

REKLAMA, E'ONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'onlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Fazilov Asatga (2022-yil 28-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Tagiyeva Sayyora Djavadovnaga (2017-yil 12-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Yuldasheva Lubatga (2017-yil 21-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun

meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Fazilov Asatga (2022-yil 28-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Tairova Buvrabyaga (2022-yil 30-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Gulyamov Muso Iskandarovicha (2023-yil 3-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Yuldasheva Lubatga (2017-yil 21-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Dastlab so'zga chiqqan viloyat hokimi Erkinjon Turdimov xalqaro konferensiya qatnashayotgan barcha ishtirokhchilari qutildi.

- Bugun biz Ali Qushchi kabi betakror va ulug' alloma merosiga murojaat qilyapmiz, - dedi viloyat hokimi.

- Zero, bu matematika va astronomiya olim faoliyatiga bag'ishlangan tadbirning Samarqandda o'tkazilishida ramziy ma'no bor. Chunki Ali Qushchi XV asrda aynan Samarqandda tug'ilib voyaga yetdi, kamol topdi hamda ilmiy asarlarini arab va fors tillarida yozib qoldirdi. U boshlang'ich bilimlarni Samarqanddagi madrasalarda, matematika va astronomiyaga oidi bilimlarni esa bevosita Qozizada Rumiy va Mirzo Ulug'bekdan o'rgangan. Binobarin, Ali Qushchi o'z asarlarida Samarqand ilmiy-adabiy muhitining quadrati va salohiyatiga yuksak baho bergan, bu haqda bir nechta risolarlar yozgan.

Xalqaro ilmiy konferensiya so'zga chiqqanlar Mirzo Ulug'bek va Ali Qushchingin ilmiy maktabi, ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi haqida ma'ruzalar qildi. Ikki kun davom etgan anjumanda xorijdan kelgan olimlar va mahalliy olyi ta'lim muassasalarini professor-o'qituvchilari Ali Qushchi qoldirgan ilmiy merosni chuqr o'rgandi, tahlii qildi. Uning matematika, geometriya, astronomiya, falsafa fanlariga qo'shgan hissasi dunyo olimlari tomonidan e'tirof etildi.

Shuningdek, tadbir doirasida Samarqand davlat universiteti rektori Rustam Xolmuroidov AQSHning Dallasdagi Texas universiteti Nanotexnologiya instituti direktori o'rinosari Anvar Zohidovga universitetning "Faxriy professori" unvonini topshirdi.

Sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ish o'rinalarini saqlab qolish va yangilarini yaratishda muhim o'rinnutadi. Shu bois bugungi kunda respublikamizda sanoatni rivojlantirish, eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga katta e'tibor qarataytipli hamda ularning uzluksi ishlashi uchun sharoitlar yaratildi. Shu asosda bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo'lgan eksport salohiyatini oshirish maqsadida barcha sohalarda tadbirkorlar uchun quayliy yaratish orqali ularga amaliy yordam berilyapti.

EKSPTYOR KORXONALARGA MAHSULOTLARNI QADOQLASH

va tamg'alachga oid tushunchalar berildi

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining davlat nazorat departamenti, Ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi va Milliy metrologiya instituti Samarqand filiali mutaxassislar tomonidan ushbu yo'nalişda tizimli ishlari amalga oshirilib, eksportyori korxonalarining muammolari o'rganilmoqda. Yaqinda departament xodimlari Urgut tumanidagi poyabzal ishlab chiqaruvchi "EURO STYLE SHOES" MCHJ faoliyati bilan tanishdi.

Korxona eksport faoliyatini rivojlantirayotgan istiqbolli ishlab chiqaruvchilardan biri. Tayyorlanayotgan 507 ming AQSH dollarilik mahsulot Qozog'iston va Tojikiston davlatlariga eksport qilinayotgan bunga yaqqol misol. Endilikda korxona rahbarlar oldida xalqaro standartlarni keng joriy etish va ushbu talabalar asosida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish vazifasi turibdi.

Departament xodimlari tomonidan korxonaning soha yuzasidan muammolni masalalar o'rganilib, ishlab chiqarayotgan mahsulotni qadoqlash va tamg'alachga oid tegishli tushunchalar berildi, sohaga doir qonunchilik bo'yicha yangiliklar tushuntirildi. Shuningdek, korxona vakillari bilan kelgusida ishlab chiqarayotgan mahsulot sifatini oshirish yuzasidan hamkorlikda ishslashga kelishib olindi.

Parviz SHAVKATOV, Davlat nazorat departamenti viloyat bo'limi inspektori.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Namijtdinov Aliga (1989-yil 26-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Nurulayev Egamberdiga (2021-yil 13-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Sultanov Xalimga (1974-yil 21-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Yun Rolyaga (2005-yil 31-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumanı Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Rasulova Robiya Rashidovnaga (2008-yil 6-yan-



Intervalni "Enter" tugmasi bilan sozlaydiganlar qancha ekan?!

- Kompyuterda ishslashni o'rgandin-gizmi?

- Ha (Xudoga shukr, shuni o'rganibdi, dedim ichimda).

- Shu matnni to'liq matn qator oralari intervalini ikkiqa o'tkazing-chi - o'zim ishslar turgan Word dasturidagi matnni ko'rsatib, talabaga joy bo'shatdim.

- Bitta-bitta har bir qator boshiga "enter" ni urib chiqaman (hafsalam pir bo'ldi).

Excel dasturini olib, 2 ta 3 xonali son yozdim. Biri 2022-yilgi hosil, ikkinchisi 2023-yilgi hosil. Hosildorlik qancha foizga oshibdi?

Klavatura va "sichqoncha"ni ancha ovora qildi, lekin hosildorlik o'sish foizi chiqmadи.

- Sizda "Exsell" boshqacha ekan.

- Talab va ehtiyoj nomli iqtisodiy kategoriyalar kor-ku, or u'rtasidagi farqni bilasizmi?

Sukut...

- Maktabda o'tgandig-a, uchburchak yuzasi qanday o'chanan...

- 3 ta tomonlarini ko'paytirib chiqamiz.

- Aylana yuzasi-chi? (to'g'risi, aylanada yuza bo'lmaydi, doirada yuza bo'ladi degan javobni kutganim ham yo'q).

- Yodimga kelmaytapi-da...

- "Doing business" nomli xalqaro reyting haqida bilasizmi?

- Bilmadim, biznes qilish degani tarjimasi.

- Buyuk ajdodimiz Mir Alisher Navoiyning "Xamsa"si dostonlari nomlarini sanab o'ting-chi.

- Yodimda yo'q.

- Registondagi Sherdor madrasasini qurdigan buyuk ajdodimiz kim?

- Ulug'bek ..., yo'q, adashdim, Amir Temur qurdigan.

- Yana bir buyuk ajdodimiz Abdurauif Fitrat, u kishi yashagan davr haqida fikrlaringizni bildiring-chi.

Uzoq sukut.

Kimni yo'kimlarnidir, qayerlarnidir tanqid qilish maqsadida bitmadim bu yozuvni. Faqat bugun olyi ta'lim, qo'yiking, o'rta ta'lim muassasalarida nimalar o'qitilayapti, shunga qiziqib qoldim, xolos".

G.MO'MINOV



Shu yilning 25-iyul kuni mash'um xabar tarqaldi... "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, "Shuhrat" medali sohibi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, adib Luqmon Bo'rixon 58 yoshida vafot etdi". Barcha adabiyot muxlislariyu uni taniganlar chuqur qayg'uda qoldi. Ustoz Luqmon Bo'rixon shubhasiz, el suygan adib edi. Niroyatda mehnatkash, odamoxun, eng muhim, shogirdparvar inson edi. Atrofidan yoshlar arimasdi. Har biri bilan alohida ishlar, ijodi ishlari bilan tanishishdan, maslahat berishdan charchamasdi. Necha yillar oldin mening "Jiyron" hikoyamni o'qib, "Bunda qissa yuki bor, qaytadan bir ko'ring, buyog'iqa biz ham qarab turmaymiz, kamchiliklari bo'lsa, birgalikda tuzatamiz", degan edi. Afsuski, men bunga na qunt qildim, na hafsala. Vaqt esa o'tib ketyapti, hatto Luqmon Bo'rixondek ulug' inson ham o'tdi... Yoshlardan ko'p umid qillardi, ko'p yaxshi ishlar kutardi. Lekin yoshlar tirikchilik tashvishi yoki boshqa sabab men kabi Ustozning o'gitlarini unutib qo'yayapmiz. Bugun barcha ustoz Luqmon Bo'rixoni yaxshi xotiralar bilan eslayapti, men ham u kishi bilan suhbat qurban, ijodi bo'yicha baholi qudrat fikrlashgan ekanman. Shuni siz azizlarga ilingim keldi..."

"YURT QISMATIGA MAS'ULLIK YOZUVCHINING IJODIY LABORATORIYASIDIR"

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, yozuvchi Luqmon BO'RIXON bilan so'nggi suhbat

1965-yilda Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanidagi Yangiobod qishlog'iida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetining jurnalistik fakultetini tamomlagan. Dastlabki hikoyasi — "Beginqul katta". Shundan so'ng yozuvchining "Ylangyoq", "Sirli muallim", "Xizr ko'rigan yigit" singari hikoya va qissalar to'plamlari nashr etilgan. "Jaziramadagi odamlar", "Olov tutgan odam", "Temiryo'l", "Begonalar yurmas bu yerda", "Imom Moturidiy" romanlari muallifi.

— Ustoz, SO'Z – siz uchun nima? Yozuvchining hayotida so'zning ahamiyati qay darajada deb o'ylaysiz?

- Insonning insonligi uchun suv, havo qanchalik muhim bo'lsa, so'z ham shunchalik zarur. Yaratganning ulug' ne'mati – so'z. Hayonlardan insonni so'z ajratib turadi. Inson his-tuyg'ularini jamlab, bir-biriga yetkaza oladi. Yozuvchilarga so'z bilan so'zlashish imkoniyati berilgani katta baxt. Biz yozuvchilar asosan so'z bilan ishlaymiz. Qalb kechinmalarni so'zda ifodalashga harakat qilamiz. So'z samimiyatni yaxshi ko'radi, u bir jonli xilqat. So'zga xiyonat qilmaslik kerak. U bilan ishlayotganda ibodatga chog'langandek tozalanib kirish kerak. So'z shunday ulug' ne'matki, yozuvchi unga munosib bo'la olishi kerak.

— **Yozishni qachon boshlagansiz?**

— Yozuvchiga iqtidor berilishi bir ne'mat. Ilhom, adabiy iqtidor bir mas'ullikdir. Yozuvchiga faqat qog'ozga to'kish jarayonida emas, atrofdagi har bir hodisidan ilhom keladi. Ilhom juda zarur. Uning kelmay qolishini men tasavvur qila olmayman. Yozuvchiga ilhom ke-

lishi yomg'ir yog'ishiga o'xshaydi. Asta-sekin tug'iladi. Yangi fikrlar qo'shiladi.

— **Luqmon Bo'rixon ijodxonasi qanday olam? U asarlarini qanday yaratadi? Ijod jarayoningizdagidagi iztirob va sevinch haqida so'zlab bersangiz...**

— Yozuvchining uyi ham, oilasi ham, ish joyi ham ijodiy laboratoriya. U nimanidir o'yaydi, inkor qiladi, e'tirof etadi. Yozuvchi vogelikka yozuvchilik nigohl bilan qaraydi. Yozuvchining hayoti darddan, iztirobidan iborat bo'ladi. Aslida yaxshi asar quvonchdan emas, iztirobdan tug'iladi. Xalq qismatiga, yurt qismatiga mas'ullik uning ijodiy laboratoriyasidir.

— **Qissalaringizdagi milliy va umuminsoni qadriyatlar ifodasi qanday deb o'ylaysiz?**

— Dunyoda ikkita haqiqat bor. Tug'ilish va o'lish. Qolgan hammasi tasavvurdan iborat. Baxtsizlik degan tushuncha siz uchun baxtilik bo'lishi mumkin. Bu hammasi xayolot mahsuli. Yozuvchi ham shunday ifodalaydi. Agar u mahoratlari bo'lsa, u sizni ishontira oladi. Faqat ashayoviy dalillardan emas, badiyit vostalar dan foydalandi. Bu yozuvchining mahoratiga bog'liq. Adabiyot mohiyatiga ko'ra gumanitar fanlarga kiradi. Adabiyot juda bepoyon joy. Har bir kishida o'z nuqtai nazari bor. Adabiyotda hamisha yaxshi asarlari bo'ladi. Meni ko'proq Sharqu G'arbing mumtoz adabiyoti maftun qiladi.

— **"Jaziramadagi odamlar" romaniga Bir otim bor, ajabgina, dumlari gajakkina. Hali kelsa... kula-kula o'lasiz", degan topishmojni epigraf sifatida olgansiz. Nega bu topishmojni epigraf qilib tanlagansiz,**

topishmoq asar mazmunini oolib berishda qay daraja xizmat qildi?

— Said Ahmad aytgandek, bir sutkada 24 soat bo'lsa, yozuvchi 25 soat ishlaydi. Bizing yurtimizda o'zlashtirma yerlar juda ko'p. Ayniqsa, Qashqadaryoda juda ko'p. Cho'l hududida yashayotgan insonlar asosan tog'u toshlardan, gavium joylandar kelgan. U yerdagi yashayotgan insonlar ildizidan qo'porilib ketgandek, omonat yashayotgandek tuyuladi.

“Kommunizm avlodlarini qurish” degan bir tushuncha bo'lgan. Men romanimda cho'llar hamda odamlarning qalbini o'zlashtirishning oqibatini ifodalaganman. Jaziramada qolgan odamlar ildizini ko'rsatishga harakat qilganman. Bu narsani ozgina yumor, satira, istehzo bilan berishga harakat qilganman. Epigrafda esa nazarda utilayotgan narsa – bu hayot, cho'l hayoti. U qanchalik yengil kulgu bilan bo'lsa, aslida insonni yig'latadigan, o'ylashga majbur qiladigan hayot haqida ishosh qilganman.

— **Tun qa'ridagi shu'l'a" hikoyasida harbiyalar va muallimlar hayotidan hikoya qilgansiz. Fidoyilik namunasini ko'zgude tutgansiz, nazarimda. Umuman, ijodingizda o'qituvchilik kasbini ulug'lash ko'proq uchraydi. Bunga sabab nima?**

— Fidokorlik haqida gap ketganda, muallimlarni birinchi o'ringa qo'yan bo'lardim. Ulardan davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotini amalga oshirish kabi katta fidokorlik talab qilinadi. "Sirli muallim" qissasida ta'lim tizimining hamma manzaralari jo bo'lgan. "Tun qa'ridagi shu'l'a" da juda katta fikr bor. Harbiyalar tunda yorug' nuqta ko'radi. Bosqinchilar bo'lsa kerak deb o'ylashadi.

Uyda esa bir muallim gerbariy terib yurgan bo'ladi. Meni iztirobga solgan narsa bosqinch deb o'yagan, izlaganlar aslida ma'rifatparvarlar bo'lib chiqadi. Harbiy obrazida ham ramziylik bor. O'qituvchilarning real hayoti, mashaqqatlarini to'liq holida ko'rsatib tasvirlashga harakat qilganman.

— **"Cho'idan kelgan tashvish" hikoyagizing yaratilishi haqida so'zlab bersangiz. Hikoyada Samad Do'lanovning bir necha soatda o'y-xayollar orqali nimani ifodha etmoqchi bo'lgansiz?**

— "Cho'idan kelgan tashvish" qahramoni – mehribonlik. Qahramonlik mehribonlikni bildiradi. Adabiyotda o'quchini qoniqtiradigan asar ko'p deyolmayman. Adabiyot insonshunoslik, insonni qoniqtirishi kerak. Quvonch, tashvishlari, iztiroblarini oolib beradigan fan. Uning markazida inson turadi. Hamma mavzular o'tada. Hamma mavzular dan chetdamiz deyishimiz mumkin.

— **Rejalaringiz...**

— Tarixiy asar yozish murakkabligi manba izlashda. Meni mahliyo etgan tarixiy shaxslar ko'p. Ularning hayoti va faoliyatini qayta o'rganish kerak deb o'ylayman. Tarixiy munosabati to'g'ri qo'yish maqsadi bo'ladi.

Ijodkorda o'zidan qoniqmasligi degan tuyug'u bo'ladi. Lekin hali rejalarimiz bor. Yirik ko'lamlari asarlari yozamiz hali.

Afsuski, sevimli adibimizning rejalarini amalga oshmay qoldi, yozuvchi bu olamni bevaqt tark etdi. Ammo yozgan asarlari o'zbek kitobxonalarining ko'ngliga kirib ulgurgan. Oxiratnigiz obod bo'lsin, Ustoz, deymiz.

Do'stbek SULAYMONOV suhbatlashdi.


O'qing, qiziq

MISR VA FIR'AVNLAR HAQIDA



Kleopatra tarixdagagi eng boy ayollardan biri bo'lgan. Uning shaxsiy kapitali zamonaviy hisobda deyarli 96 milliard dollarni tashkil etgan. U go'zalligi bilan emas, balki aql-zakovati va jozibasi bilan insonlarni hayratda qoldirgan.

Misrda piramida quruvchilarining ishidan javob so'ragan kunlarining sababi bitilgan yozuvlar topildi: "chayon tishladi", "pivo pishirdim", "xotinim betob edi"...



Qadimgi Misr qiroli Peopi II rekord darajada uzoq vaqt hukumatda qolgan. Dalillarga ko'ra, u olti yoshida taxtga o'tirgan va 94 yil hukmdortlik qilgan.

2013-yilda Manchester muzeydagi Misr haykalchasi sirlari ravishda qimirlagan.

Qadimgi misrlilarni uy hayvonlari sifatida saqlash uchun emas, balki mumiyolah marosimi va xudolarga qurbanlik qilish uchun saqlashgan. Ular muqaddas deb bilgan hayonni vafot etganlarning keyingi hayotida madadkor bo'lishi uchun mumiyolagan.

Qadimgi Misrda fir'avnlar bo'lмаган. "Fir'avn" so'zi birinchi marta Injilda uchraydi va u "hukmdor" emas, balki "saroy" degan ma'noni anglatadi.

Iskandariya yaqinida Mark Entoni va Kleopatra qabri bortigi manbalarda keltirilgan. Amмо arxeologlar uni haligacha topa olishmagan.

Qadimgi misrlilarni ishlatgan asboblar – keski, yog'och bolga va bosqichalar yordamida Buyuk Piramidaning 2,5 tonnalik oddiy plitasini yaratish uchun atigi to'rt kishi va to'rt kun kerak bo'lgan.

Internet ma'lumotlari asosida G.XOLDOROVA tayyorladi.

Xalq uchun mash'ala tutib

Samarqand davlat universitetining muhim bo'g'ini bo'lgan filologiya maktabi turli sohalarga doir tadqiqotlari va malakali filologlar tayyorlashda qo'shayotgan ulkan xizmatlari bilan alohida qadrlanadi. Ushbu qutlug' dargohning shonli faoliyatini munosib davom ettirayotgan olimlardan biri filologiya fanlari doktori, professor Murodqosim Abdiyevdir.

M.Abdiev 1963-yilda Jizzax viloyati G'allaorol tumanida tug'ilgan. 1970-1980-yillarda mazkur tumanagini umumta'lim muktabida o'qidi. So'ngra Samarqand davlat universitetida tahsil oldi. Talabalik davrida u akademiklar – V.Abdullayev, B.Valixo'jayev, professorlar – H.Berdiyorov, X.Doniyorov, R.Qo'ng'urov, N.Shukurov singari ustozlardan saboq oldi.

Universitetni bitirgach, bir muddat Samarqand pedagogika bilim yurtida ona til va adabiyot fani o'qituvchisi bo'lib ishladi. 1987-yildan hozirgacha uning faoliyati universitet bilan bog'liq bo'lib, filologiya fakulteti oddiy laborantligidan fakultet dekanigacha bo'lgan yo'lini bosib o'tdi. 2020-yildan hozirgacha Vazirzal Mahkamasi huzuridagi "Davlat tilida ish yuritish va malaka oshirish markazi"ning Samarqand viloyati hududiy bo'limmasi rahbari hamda o'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori lavozimlarida faoliyat yuritib kelmoqda.

Murodqosim Bolbekovich ko'p yillardan beri tilshunoslikning leksikologiyasi, leksikografiya, terminologiya, dialektologiya, frazeologiya, so'z yasalishi, fonetika, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya, lingvopojetika, onomastika, lingvogeografiya hamda til o'qitish metodikasi singari sohalarida ilmiy tadqiqot olib bormoqda.

Olin ilmiy faoliyati davomida o'nlab monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalar, 400 dan ortiq ilmiy ishlar nashr etdi. Jumladan, "Sohaviy leksikaning sistem tahlili muammolari", "Kasb-korni ifodalovchi shaxs nomlarining yasalish asoslari", "Kasb-hunar leksemalarining yasalish masalalari", "Turkiy tilli xalqlar lingvogeografiyasi", "Lotin



yozuvi", "Maktabda Xoja Ahmad Yassaviyayotu va ijodini o'rganish", "O'zbek tili", "O'zbek tilida ish yuritish", "Nutq madaniyati" singari kitoblari nashr etilgan.

Murodqosim Bolbekovich ilmiy rahbarligida o'nga yaqin tadqiqotchi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini yoqlagan. Yana o'nga yaqin tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot ishlariiga rahbarlik qilmoqda. U horzida SamDU, QarDU, JizDPU huzuridagi filologiya fanlari bo'yicha ilmiy daraja beruvchi ilmiy kenashlar a'zosi.

Domla uzoq yillar universitetning filologiya fakulteti o'quv-uslubiy kenashgacha raislik qildi. Ayni paytda ham jamaatchilik asosida Olyi ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi "O'zbek tili va adabiyoti" o'quv-uslubiy birlashmasi eksperti hamda "O'zbek shevashunosligi" markazi direktori o'rinosbasari va muvoqilashitiruchi kengash a'zosidir.

Timib-tinchmas olim 60 yoshni qarshiladi. Kishi bu yoshda ayni kuchga to'lgan, fikrlari pishib yetilgan, katta tajriba va bilimni qo'lg'a kiritgan bo'ladi. O'ylaymizki, Murodqosim Abdiyev o'zbek tilshunosligiga yanada ulkan hissa qo'shadi va yangidan-yangi ilmiy-uslubiy maqolalari, darsliklari, risolalari bilan ona tilimizni boyitadi. Zero, Yusuf Xos Hojib aytganiekidek: "Olimlarning ilmiy xalqqa mash'aladir, mash'ala bo'lgach, qorong'ida kishi adashmaydir".

— **Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti birinchi prorektor, filologiya fanlari doktori, professor Sharhiyor JO'RAYEV, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).**

Joriy yil 7–10-sentabr kunlari Xiva shahrida xalqaro etnosport festivali bo'lib o'tdi. Unda dunyoning 63 mamlakatidan mingga yaqin sportchi ishtirop etdi.

Toyloqlik polvon Xivada faxrli o'ringa munosib ko'rildi



Festival doirasida 12 sport turi bo'yicha turli tadbirlar, jumladan, belbog'i kurash bo'yicha xalqaro turnir, o'zbek jang san'ati, mas-restling, bahodirlar o'yini va tosh ko'tarish bo'yicha jahon championatlari o'tkazildi. Faxriyalar o'tasida tosh ko'tarish musobaqasida toyloqlik Meroj Isomiddinov uchinchini o'rinni qo'lga kiritdi.

— Yurtimiz hududida tarixan juda ko'p milliy xalq o'ynlari bo'lgan va ular avloddan avlodga o'tib kelayti, - deydi faxriy sportchisi. – Bu o'ynlarning zamirida yoshlarning sog'lom va baquvvat, yurt koriga yaraydigan inson bo'lib shakllanishi ga undash bor. Yoshligida bunday sport o'yninlariga ishtiyoq bilan ulg'aygan kishi jismonan tetik va sog'lom bo'ladi. O'zim ko'p yillardan buyon tosh ko'tarish sport turi bilan shug'ullanaman. Yetmishni qoralayapman, Xudoga shukur, salomatligimdan shikoyatim yo'q. Bunday tadbirlarda faxrlar o'rninlari olish quvonarli, albatta.

S.MARDIYEV.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

22-SENTABR
Abdurashid ABDURAHMONOV – (1947-2009) Urugut tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari nomzodi, professor.

27-SENTABR